

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Xudaynazarova Oydin Xudayberdiyevna

Toshkent shahar Yashnobod tumani 282-umumiy o'rta ta'lif makkabining
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga tasviriy san'at fanini o'qitishning zamonaviy metodlari, boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi, shaxsning badiiy madaniyatini rivojlanishida tasviriy san'atning o'rni haqida batafsil bayon etiladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, o'qitish metodikasi, badiiy madaniyat, metodik soha.

Kirish: Mamlakatimizning ta'lif-tarbiya sohasidagi o'zgarish va shiddatli rivojlanishi makkab o'quv fanlarining har birini yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish, ularning didaktik va metodik sohalarini takomillashtirishni talab qiladi. Shunga ko'ra, makkab o'quv fanlarini, jumladan, tasviriy san'at o'quv predmetini ham yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitishni davr talab qilmoqda.

Bu jarayon o'zining didaktik va metodik jihatlarida ham, albatta, ijobjiy o'zgarishlar yasaydigan shart-sharoitlar yaratilishini taqozo qiladi. Chunki har qanday ta'lif berishni tashkil etish va berilgan bilim-malakaning oldindan belgilangan me'yorda bo'lishini ta'minlash, asosan, ta'lif berish vositalari, didaktik va ko'rgazma qurollar, o'qituvchi nutqi va uni o'qitish didaktikasi va metodika-uslublaridan qay tarzda makammal, to'g'ri, asosli foydalanishga bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fani pedagogika ilmining o'quvchilarni tasviriy san'atga o'rgatish mazmuni, vazifalari va metodlarini o'qitishning mazmuni, vazifalarini va metodlarini aniqlovchi, ijodiy ishlardagi oqilona usullarini o'rganuvchi, ta'lif va tarbiyaning maqsad va vazifalariga tayangan holda samarali o'quv jarayonini tashkil etuvchi, shakl va yo'llarini tadqiq etuvchi sohasidir.

Tasviriy san'at o'quv predmetining ta'lif jarayonida ham o'quvchilarga beriladigan bilim va malakalarni hayotda, turmushda va boshqa faoliyatlarda qo'llashga o'rganish vazifasi qo'yiladi. Lekin makkabda tasviriy san'atni o'qitish xarakteri va mazmuniga ko'ra, bu o'quv predmetining har bir darsida berilgan nazariy bilim va malakalarni shu darsning o'zida amaliyotda qo'llash imkoniyati yaratiladi. Chunki tasviriy san'at darslarida rasm chiziladigan narsa va voqealar haqida va ularning rasmini chizish-tasvirlash bo'yicha ilmiy-amaliy ma'lumotlar, tushunchalar, ko'rsatmalar beriladi. So'ngra shu darsning o'zida berilgan nazariy bilimlar bo'yicha amaliy ishlarni boshlanadi.

Ma'lumki, tasviriy san'at umumta'lim xarakteridagi o'quv fani hisoblanib, u bo'lajak turli kasb egalariga umumta'lim me'yordagi grafik bilim va malaka beradi. Chunki hozirgi jamiyatda xizmat qiladigan barcha kasb egalariga rasm chizish va grafik savodxonlik juda zarurligi kuzatilmoxda. Ayniqsa, maktab o'qituvchisiga grafik savodxonlik, rasm chizish, xaritalarni tasvirlash, mavzularni yozish yoki o'rganilayotgan narsani, obyektlaming rasmini chizish har bir o'quv fani o'qituvchisiga juda zarur bo'ladi.

Natijalar: Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar jarayonida bolalarda qatiylik, faoliik, o'z kuchiga ishonch hosil qilinadi, shuningdek, ijodkorlik, mustaqil fikr yuritish va ishlash qobiliyatlarini tarbiyalash yetakchi o'rinni egallaydi. Bu o'rinda o'quvchilar vazifani ko'rgazmali tarzda, obrazlar orqali idrok etishlari talab etiladi.

Boshlang'ich sinflarda bo'yoq bilan ishlash mashg'ulotlarida ranglarning turli tus va och-to'qligini farqlay bilishga, kerakli ranglarni tanlay olishga o'rgatish asosiy vazifadir. Bu sinflarda ko'proq guash, akvarel bo'yog'idan foydalaniladi va ularni esa aralashtirib ham ishlatish mumkin.

San'atni idrok etishga boshlang'ich sinflarda maxsus soatlar ajratilmaydi. U rangtasvir kompozitsiyasi, naturaga qarab tasviriash mashg'ulotlarida amalgalash oshiriladi. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at asarlarini idrok etishga oid o'quv materiallari-o'quvchilarning amaliy ishlari bilan bogiiqdir.

Muhokama: San'at asarlarining nusxalarini ko'rsatish va ular haqida so'zlab berish bolalarda san'atga qiziqishni orttiradi va shu sohada shug'ullanishga yo'llaydi. Asarlarni namoyish etishda bolalar unda ifodalangan asosiy fikr va qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalar bilan tanishtiriladi.

Rangshunoslik bo'yicha beriladigan nazariy bilimlar o'quvchilarga ranglar va uning nomlari, tuslari hamda ulaming kishilar hayotidagi ahamiyati haqida bilimlar berishni vazifa qilib qo'yadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar asosan akvarel, guash bo'yoqlar bilan rasm ishlaydilar.

Rangtasvir, dekorativ ishlarni bajarish jarayonida esa asosiy va hosila ranglar, ulaming tuslaridan foydalangan holda ish olib borishlariga to'g'ri keladi. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik mакtab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagи mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'quv predmetining, amaliy san'at, xususan xalq amaliy san'atiga katta o'rin beriladi. Birinchi sinfdan boshlab turli naqsh namunalari chizdiriladi. Badiiy obrazni idrok etish malakalarini rivojantirish - san'at asarlarini o'rganishning asosidir. O'quvchilar asar haqida mulohaza yuritib, idrok etishni, uning mazmunini maxsus iboralamni qo'llagan holda so'zlab berishni,

shuningdek, asarda qo'llangan tasviriy vositalarni payqab olish va uni ta'kidlab o'tishni bilishlari lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at metodikasi. -T., «Ilm-Ziyo», 2006.
2. Abdirasilov S.F., Tolipov N.X. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. -T ., «Aloqachi», 2007.
3. Oripov B. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. -T.: «Ilm-Ziyo», 2006.
4. Abdirasulov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. -T.; «O'zbekiston», 2006.
5. Qodirxo'jayev P. Badiiv bezak san'ati. -T., «Iqtisod-moliya», 2007.
6. Boymetov B.B., Abdirasilov S.F. Chizmatasvir. - T., «G'afur G'ulom», 2004.